

## AVTOMOBILLARDA TASHISHNI TASHKIL ETISHNING TASNIFLANISHI

**Karimov Akmal Akbarovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti,  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

### ANNOTATSIYA

*Maqolada yuk va yo'lovchilar tashishni tashkil etish hamda avtomobil yo'llarida yuklarni tashish qoidalari va harakat xavfsizligini ta'minlashga oid ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** yuk tashish, avtomobil yo'llari, yo'lar tarmog'i, yuk jo'natuvchi, yuk hajmi, tashish hajmi, yuk oqimi.*

**Kirish.** Keyingi yillarda transportlarda tashishni tashkil etishda mamlakatimizda keng ko'lamlı islohotlar olib borilmoqda. Yildan yilga avtomobil transportida va boshqa transport turlarida tashishlar hajmi ortib bormoqda. Tashish hajmiga ko'ra yuk tashishni tashkil etish quyidagi tamoyillari bo'lishi mumkin: bir turli juda ko'p hajmdagi yuklarni tashish, bir turdagi yuklarni nisbiy ko'p miqdorda tashish, kam miqdorli yoki yuklarni yig'ib tashish tamoyil (prinsip)lari. Bir turdagi juda katta hajmdagi yuklarni tashish: bunda bir turdagi yuklarni ko'p miqdorda tashish tushuniladi. Bunday tashishlar yuk oqimining tuzilishi, miqdori va yo'nalishining barqarorligi bilan xarakterlidir. Bunday tashishlarda iloji boricha bir turdagi va yuqori unumdorli TVni ishlatilishi maqsadga muvofiq.


### Qanday xududda bajarilishiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- 1 • Shaharlarda
- 2 • Shahar atrofida
- 3 • Qishloq xududlari ichida
- 4 • Shahar va viloyatlararo
- 5 • Xalqaro tashish

Kam miqdorli yuklarni tashishda mayda hajmdagi jo‘natuvchilar va qabul qiluvchilar yuklari tashiladi hamda aholining maishiy ehtiyojlari qondiriladi. Bunday tashishlar TVda bir vaqtning o‘zida bir necha yuklarni, ba’zida esa ularni ortish-tushirish joylari har xil joydaligi bilan xarakterlidir.

Tashkiliy tomonga ko‘ra: yuklar umum foydalanish avtotransporti tashishiga va boshqarmalarga tegishli avtotransportda yoki shaxsiy mulk egalari avtomobili bilan tashishga bo‘liniladi. Birinchi turdagi tashishlar sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish savdo-sotiq sohalarida hamda kommunal xo‘jalik, aholini maishiy xizmati talablarini umumdavlat nuqtai nazaridan qondirishga qaratilgandir. Ikkinchi turdagi tashishlarda esa xalq xo‘jaligining aniq bir boshqarmasi yuk tashish talablarini qondirish bilan bog‘liqdir. Bunday tashishlar aniq ishlab chiqarish talabini o‘z vaqtida qondirishga qaratilgandir. Korxonada tashishlar ham tashkiliy tomondan boshqarmalar tashuviga kirgiziladi. Tashish hududiy belgisiga ko‘ra: yuk tashishlar yo‘lovchilar tashishdagicha shahar, shahar atrofi, shaharlar (viloyatlar)aro, qishloq tumanlararo, tumanlar ichi tashishlarga bo‘linadi.

### Vazifasiga ko‘ra yo‘nalishlar quyidagilarga bo‘linadi:



Tashishni tashkil etishda, uning bir tekisligi va o‘z vaqtida bajarilishiga hamda yuklarning miqdori va sifati saqlanishiga, texnika, materiallar va pul xarajatlari eng kam bo‘lishiga, yuqori darajali tejamkorlik va tannarxning eng arzon bo‘lishiga e‘tiborni jalb etish lozim. Belgilangan miqdordagi tashish hajmini bajarish uchun zarur bo‘lgan TV va boshqa har xil qurilmalar soni minimal miqdorda va ular unumdorligi maksimal bo‘lishini ta‘minlash lozimdir.

Yuk tashishni oqilona (ratsional ravishda) tashkil etish uchun o‘z vaqtida ishlab chiqilgan va vaqti belgilangan reja zarur. Bunday rejani ishlab chiqishda aloqador mijozlarning ishtiroki katta bo‘lishi zarur. Bunda TVning liniyada ishini meyorli

bo'lishiga hamda ortish-tushirish operatsiyalari o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash lozim. Avtotransport korxonalarini uchun barcha mijozlarga bo'lgan munosabat bir xil bo'lishi, ayrim mijozlarga xizmat ko'rsatishda boshqa mijozlar zarar ko'rish hisobiga ularni afzal ko'rishga yo'l qo'yish mumkin emas. Istisno sifatida alohida hollarda (masalan, tabiiy ofatning oldini olishda) yoki xukumat ko'rsatmasiga binoan bunday ishlarga yo'l qo'yilishi mumkin.

Barcha tashish ishlari mijozlar va ularning bajarish vaqtlaridan qat'iy nazar shartnoma (o'zaro majburiyati) bilan tashish rejasiga binoan bajariladi.

Avtotransport korxonasi va mijozlarning o'zaro munosabatlarini shartnoma orqali tartibga solinadi. Shartnoma orqali ularning aloqalari, tashish qatnashchilari, moliyaviy tartibni mustahkamlash kabilar belgilanadi. Tashishga belgilangan shartnoma ish xujjatlarining asosi bo'lib, u joriy (yillik), kvartal va ildam (smenasutkali) rejalar tuzish asosi hamdir.

Avtotransport korxonasi bilan shartnoma tuzuvchi mijoz odatda yuk jo'natuvchi, ba'zi hollarda esa yuk qabul etuvchi bo'ladi. Yuk jo'natuvchi tashkilot (korxonasi) yoki uning nomidan yuk jo'natuvchi shaxs bo'lishi mumkin.

Shartnoma yozma shaklda yoki bir marotabali talabnoma (zayavka) shaklida bo'lishi mumkin. Shartnomada quyidagilar ko'rsatiladi:

- a) shartnoma tuzishda vakolatli tashkilot va uning javobgar shaxsi;
- b) tashish miqdori va yuk turlariga ko'ra tashish xarakteri ko'rsatilgan shartnoma predmeti;
- v) tashishni bajarish sharti. Bunda tashish vaqti belgilangan reja, yukni berish tartibi, tashish masofasi, ortish-tushirish operatsiyalarini bajaruvchi vositalar va ularning ishlash tartibi, ekspeditsiya ishlari, talabnoma (zayavka) berish vaqti va uni rasmiylashtirish tartibi va h.k. bo'ladi;
- g) kelishilayotgan tomonlar javobgarligi;
- d) bajarilgan ishga hisob-kitob vaqti va uni bajarish tartibi, shartnomaga ko'ra da'voni ko'rib chiqish tartibi; tomonlar adresi bankdagi hisob-kitob raqami, jarimalar va shunga o'xshashlar.

Shartnomada belgilangan shartlar buzilib bajarishda tomonlar jarima to'lash tartibi kabilar ko'rsatiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Насиров, И. З., Косимов, И. С., & Каримов, А. А. (2017). Морфологик тахлил" методини қўллаб ўт олдириш свечасини такомиллаштириш. *Инновацион технологиялар*, 3, 27-74.
2. Mamatov F. M., Karimov A. A. Potato digger with latticed plowshares and oscillating rods. *E3S Web of Conferences*, 2023. 401, P. 04029.
3. Каримов , А. А., & Кичкинаев, М. А. у. (2023). ПРИСАДКА ДЛЯ МОТОРНЫЕ МАСЛА. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(3), 1021–1024. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/2512>.
4. Karimov A.A. Parameters of the working body of root crops // Prospects for the introduction of innovative technologies in the development of agriculture: International conference: – Fergana, 2021. –B.208-213. doi:10.47100/conferences.vlil.1335
5. Karimov, A. (2021, July). PARAMETERS OF THE WORKING BODY OF ROOT CROPS. In Конференции.
6. Karimov, A. (2023). PARAMETERS JUSTIFICATION OF THE IMPROVED POTATO DIGGER. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(18), 256–263. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1655>
7. Karimov, A. A., & Xoliqov, X. U. (2023). KORXONADA LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISHDA YO ‘L HARAKATINI TASHKIL ETISHNING ILMIY AHAMIYATI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(23), 278-284.
8. Karimov , A. A., & Xoliqov , X. U. (2023). KORXONADA LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISHDA YO‘L HARAKATINI TASHKIL ETISHNING ILMIY AHAMIYATI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(23), 278–284. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1883>
9. Karimov , A. A., & Zikriyoyev , S. U. o‘g‘li. (2023). YO‘L BELGILARINING HARAKAT XAVFSIZLIGI KO‘RSATGICHLARIGA TA’SIRI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(23), 504–511. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1917>
10. Karimov, A. (2023). THEORETICAL JUSTIFICATION OF THE PARAMETERS OF AN IMPROVED POTATO DIGGER. *Innovatsion Texnologiyalar* , 51(03), 135–141. Retrieved from <https://ojs.qmii.uz/index.php/it/article/view/537>
11. Karimov , A. A., & Zikriyoyev , S. U. o‘g‘li. (2023). QARSHI SHAHRI KO‘CHALARIDA HARAKAT XAVFSIZLIGINI ILMIY ASOSDA TADQIQ

- QILISH. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(22), 190–199.  
Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1832>
12. Mamatov, F., Karimov, A., & Shodmonov, G. (2023). Study on the parameters of bars of the potato digger ploughshare. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 434, p. 03012). EDP Sciences.
  13. Mamatov, F., Mirzaev, B., Karimov, A., Razzokov, T., Azizov, S., & Shodmonov, G. (2023). Potato digger with a digging workpart of the "Paraplaw" type. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 365, p. 04021). EDP Sciences.
  14. Karimov, A. A. (2023). INTELEKTUAL TIZIMLARNING HARAKAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRINING AHAMIYATI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(18), 181-184.
  15. Karimov, A. A. (2023). HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISHDA TELEMATIK TIZIMLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(17), 70-73.